

ребёнка в духе правдивости красоты и добра . Так он пишет: «Учить и воспитывать ребёнка бессмысленно но и той простой причине , что ребёнок стоит ближе меня, ближе каждого взрослого тому идеалу гармонии , правды, красоты и добра, до которого в своей гордости хочу взвести его (4, с 336).

По мнению писателя, написание творческих работ учащимися должна опираться на следующее положение:

- в выборе темы творческих сочинений ориентироваться на самый широкий спектр разнообразных и интересных сюжетов. Тематика должна быть достаточно серьёзной и содержательной отражать как интересы учащихся так и эстетический вкус самого учителя.

Таким образом , взаимосвязь педагогического и художественно- творческого компонента в системе эстетической подготовки учителя начального

Использованная литература:

1. Петрова Г.А . Вопросы эстетической подготовки будущего учителя. –Казань.,Изд-во Казанского ун-та , 1976-200c
2. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс: Учебное пособие для вузов. - Казань: Изд-во Казан, гос. ун-та, кн.1 1996.-567 с.
3. Фридрих Шеллинг – Философия искусства . Пер.с П.С.Попова Вст. статья А.В.Маркова . М. : Рипол-классик , 2018.
4. Толстой, Л.И. Педагогические сочинения., М.,Педагогика 1989. - 612с.
- 5.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BtuBAGcAAAAJ&citation_for_view=BtuBAGcAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
- 6.B.S Baymuradovna, SM Gaybullayevna, DD Sobirjonovna, YM Amazonovna. Pedagogical technologies for the development of cognitive creative abilities of students in the lessons of the Russian language. Journal of Critical Reviews. 2020
7. Djurayeva Salomat Nabiyevna, Dustova Dildora Sabirjanovna Pedagogical bases and technologies for professional development of personality. Vol. 7 No. 10, 2019. Journal of Critical Reviews.2020
8. Dustova Dildora Sobirjanovna, Mahmudova Aziza. The Meaning and Functions of a Literary Text as a Factor in the Development of the Aesthetic Culture of the Future Teacher of Primary Education. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). 2021/12/11
9. Dustova Dildora Sobirjanovna, Abdullaev Sayfulla Fayzullayevich. Diagnostic Study of the Formation of the Aesthetic Development of Primary Education Students in the Process of Teaching the Russian Language. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). 2021/12/11
10. Dustova Dildora Sobirjanovna, Shuurova Ferangiz. Aesthetic Aspects of the Teacher's Professional Primary Classes. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). 2021/12/11
11. Дустова Дилдора Сабиржановна. On the issue of the formation of Aesthetic Culture among Students Of Primary Education in the process of Teaching the Russian Language. Middle European Scientific Bulletin. 2021/3
12. Dustova Dildora Sobirjonovna. Technology for teaching school children to create text in Russian lessons in elementary school. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.2020

XALQ MAQOLLARI – BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI NUTQINI BOYITUVCHI MUHIM MANBA

D. B. Axmedova,
BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD)

D. Nuritdinova,
BuxDUP 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqlolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligi, nutqiy faolligi, ziyrakligi, zukkoligi, topqirligi, chaqqonligi va xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lmish maqollarga bo‘lgan qiziqishini orttirish borasidagi fikr-mulohazalar yoritilgan hamda muhokamaga tortilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: darslik, nutqiy faollik, ustoz, o‘quvchi, tahlil, maqollar, mehnat, tafakkur.

Xalq o‘zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. O‘zbek xalq maqollari mavzu jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Maqol xalqning hayotiy tajribalarini, xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so‘zlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo‘lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratlari voqeasi ro‘y bergan va bu voqeasi o‘ta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab bo‘lgan. Maqol arab tilidagi “qavlun” so‘zidan olingan bo‘lib so‘z tushunchasini anglatadi. Demak, maqol atamasini hikmatli so‘z ma’nosida qabul qilish mumkin. Har bir jajji bolakaydan oila, maktab, vatan haqida so‘raganiningizda, ozmi-ko‘pmi ma’lumotga ega bo‘ladi. Shunday hollar ham uchrab turadiki, ba’zi bir boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z fikrlarini mustaqil, to‘liq bayon eta olishmaydi, nutqlarida turli xil g‘alizliklar uchraydi. Shuning uchun ham bunday muammolarga barham berish uchun, ularning nutqini ravonlashtirish uchun xalq maqollarini o‘rgatish asqotadi. Boshlang‘ich sinf darsliklarida xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lmish maqollarning juda ko‘plab namunalari uchraydi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida mehnat, fasllar, Vatan, do‘stlik, yaxshilik va yomonlik, ota-onaga, kattalarga hurmat kabi mavzulardagi ko‘plab maqollarni uchratishimiz mumkin. Darsliklarda keltirilgan maqollarga e’tibor qaratsak.

Yoz mevasi – qish xazinasi.

Toza havo – ming dardga davo. (1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi, 50-bet)

Yuqorida keltirilgan maqollar asosida biz o‘quvchilarga tabiat haqida tushunchalar beramiz, yosh avlodni tabiatni sevishga undaymiz, uni asrashni, zaharlamaslikni o‘rgatamiz. Chunki tabiatdan o‘zimiz nafas olishimizni, agar iflos qilsak kasal bo‘lishimizni ta’kidlaymiz.

Kattaga hurmatda bo‘l,

Kichikka izzatda.

Yaxshi so‘z qand yedirar,

Yomon so‘z pand yedirar. (2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi, 77-bet)

Keltirilgan maqollar bolalarni yaxshilikka, shirinso‘zlikka, katta va kichikni birdek hurmat-izzat qilishga o‘rgatishga, qattiq, yomon gapirib birovni xafa qilmaslikka, aksincha, uni xursand qilishga undashni maqsad qilgan..

Vatan ostonadan boshlanadi. (3-sinf “O‘qish” darsligi, 15-bet)

Halol mehnat yerda qolmas. (3-sinf “O‘qish” darsligi, 15-bet)

Kuch birlikda. (3-sinf “O‘qish” darsligi, 140-bet)

Ko‘rinib turibdiki, bu xalq maqollari ham ibratlari fikrlarni tashishga xizmat qilmoqda. Bu maqollar orqali o‘quvchilarga Vatan, mehnatsevarlik, o‘zaro ahilik, birlik haqida kengroq tushuncha berishimiz lozim, Vatanni sevishni, uni himoya qilishni, ardoqlashni, kelajakda unga sodiq va loyiq farzand bo‘lib yetishishga o‘rgatishimiz kerak, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, shu mavzuda ular bilgan xalq maqollarini namunalarini ham so‘rab olishimiz mumkin.

Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.

Mehnatli non shakar,

Mehnatsiz non zahar. (4-sinf “O‘qish” darsligi, 80-bet)

Bu maqollar do‘stlik hamda mehnat haqida. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga haqiqiy do‘stlik nima ekanligini tushuntirishi kerak. Do‘stini hurmat qilishni, boshiga tashvish tushganda uni tashlab ketmasdan, yonida bo‘lishni o‘rgatishimiz kerak. Mehnatni sevgan inson hamisha ardoqlanishini, hamma uni hurmat qilishini, mehnat orqasidan topilgan non beminnat va totli bo‘lishini, aksincha, halol mehnat qilmay topilgan non esa kishini ming azobga giriftor qilishini uqtirishimiz darkor.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida keltirilgan turli xil mavzulardagi maqollar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ularning faoliyati, lingvistik kompetensiyalari shakllantiriladi, komillik, ma’naviy barkamollik kabi fazilatlar egasi bo‘lishlarida yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollar o‘quvchilarning tarbiyasiga, dunyoqarashiga, aqliy rivojlanishiga, nutqiy faoliyatiga, darslikning yaxshi o‘zlashtirilishga juda katta yordam beradi, shuning uchun har bir dars jarayonida o‘quvchilarga maqollarni izohi bilan birga tushuntirib o‘tish yaxshi samara berishi aniq. Shunda ular maqollarning tub mohiyatigacha kirib borib, unda ifodalangan mazmunni sinchkovlik bilan ilg‘aydigan bo‘lishadi. Xalq maqollari necha asrlardan buyon insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda. Ular uzoq o‘tmishda qanchalik ahamiyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ham birdek ahamiyatlidir. Yosh avlodning ma’naviy yuksalishida alohida o‘ringa ega bo‘lgan xalq maqollarini kichkintoylarimiz og‘zaki va yozma nutqini o‘stiruvchi muhim manba bo‘lib asrlardan asrlarga osha yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
2. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
3. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
4. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
5. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //European research. – 2020. – С. 132-134.
6. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
7. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal https://saarj.com.2020. 321-326.
8. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat - hazrati Xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
9. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulleti
10. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022.
11. Omonulla Madayev, Tojixon Sobitova, O'zbek xalq poetik ijodi. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2010. - 33-34-betlar.
12. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik, Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 50-bet.
13. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi, 2-sinf uchun darslik, Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 77-bet.
14. M.Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. "O'qish", 3-sinf uchun darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 15-bet.
15. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish", 4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Yangiyo'l poligraf servis" nashriyoti, 2017. – 80-bet.

EGALIK VA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARINI O'RGATISHDA SO'ZNI TEJABISHLATISHNI O'RGATISH USULLARI

Safarov Firuz Sulaymonovich,
*BuxDU o'zbek tilshunosligi
kafedrasi doktoranti*
Haydarova Adiba Anvarovna,
BuxDUPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyati – tejamkorlik hamda boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zni tejab ishlatishni o'rgatish usullari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: tejamkorlik, o'zbek tili grammatik qurilishi, egalik va shaxs-son qo'shimchalari, ma'nodoshlik, so'z va qo'shimchalarini tejab ishlatishga doir topshiriqlar.

Sho'ro davrida o'zbek tilining grammatik qurilishi rus tili grammatikasi qolip va andozalari asosida o'rganildi. Natijada o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos xususiyati yoki e'tibordan chetda qoldi yoki rus tiliga xos xususiyat o'zbek tiliga ko'chirildi. O'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik bo'lib tejamkorlik deganda eng avvalo gap, matnda so'z va qo'shimchani tejab ishlatish nazarda tutiladi. Biroq amaldagi oliy o'quv yurti va o'rta maktab ona tili darsliklarida til hodisalari talqinida tejamkorlik haqida ma'lumot berilmagan. Natijada radio, televideniye, matbuotdagi nutq noo'rin, noto'g'ri qo'llanayotgan so'z va qo'shimcha bilan to'lib ketdi. Bu holni madaniy o'simlikka zarpechak chirmashib olishiga o'xshatish mumkin. Zarpechakdan xalos qilinmasa o'simlik sarg'ayib, bora-bora quriganidek, ortiqcha unsurlardan tozalanmasa, tilning ham sofligiga putur yetib, joziba, ta'sir kuchi zaiflashib ko'rki yo'qoladi. Buning oldini olish uchun o'zbek tili grammatik hodisalarni tejamkorlik asosida talqin qilish va bu talqinlarni maktab ona tili darsliklariga kiritish zarur. Boshlang'ich va yuqori sinf ona tili darslarida shaxs-son, egalik umuman barcha grammatik hodisani o'rgatishda